

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 17-25 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINING IJTIMOIY TABAQALANISHGA TASIRINI BAHOLASH



Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası

katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy inklyuziya darajasining ijtimoiy tabaqalanish dinamikasiga ta'sirini baholashning zamonaviy uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ko'p o'lchovli moliyaviy inklyuziya indekslarini shakllantirish metodologiyasi, Gini koeffitsienti va boshqa tengsizlik ko'rsatkichlari bilan integratsiyalash usullari ko'rib chiqilgan. Empirik tahlil asosida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi daromad tengsizligini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun moliyaviy inklyuziya strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: moliyaviy inklyuziya, ijtimoiy tabaqalanish, Gini koeffitsienti, daromad tengsizligi, ko'p o'lchovli indeks, asosiy komponentlar tahlili, rivojlanayotgan mamlakatlar.

Abstract. This article analyzes modern methodological approaches to assessing the impact of the level of financial inclusion on the dynamics of social stratification. The study examines the methodology for constructing multidimensional financial inclusion indices, methods for integrating them with the Gini coefficient and other inequality indicators. Based on empirical analysis, it is proven that expanding access to financial services has a positive impact on reducing income inequality. The results of the study are of practical importance in developing financial inclusion strategies for developing countries, including Uzbekistan.

Keywords: financial inclusion, social stratification, Gini coefficient, income inequality, multidimensional index, principal component analysis, developing countries.

Аннотация. В данной статье анализируются современные методологические подходы к оценке влияния уровня финансовой инклюзии на динамику социальной стратификации. Рассматривается методология построения многомерных индексов финансовой инклюзии, методы их интеграции с коэффициентом Джини и другими показателями неравенства. На основе эмпирического анализа доказано, что расширение доступа к финансовым услугам оказывает положительное влияние на снижение неравенства доходов. Результаты исследования имеют практическое значение при разработке стратегий финансовой инклюзии для развивающихся стран, включая Узбекистан.

Ключевые слова: финансовая инклюзия, социальная стратификация, коэффициент Джини, неравенство доходов, многомерный индекс, анализ главных компонентов, развивающиеся страны.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish so'nggi o'n yillikda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda global miqyosda kattalar aholisining 79 foizi moliyaviy hisobga ega bo'lib, bu ko'rsatkich 2014-yildagi 62 foizga nisbatan sezilarli o'sishni namoyish etmoqda [1]. Biroq, past va o'rta daromadli mamlakatlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati hamon cheklangan bo'lib, bu holat ijtimoiy tengsizlikning saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Moliyaviy inklyuziya deganda aholi va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy moliyaviy xizmatlardan (bank hisobvaraqlaridan, kredit va sug'urta mahsulotlaridan, to'lov tizimlaridan) foydalanish imkoniyati tushuniladi [2]. Ushbu imkoniyatning kengayishi yoki torayishi jamiyatdagi daromad taqsimlanishi, boylik to'planishi va ijtimoiy mobillik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tabaqalanish esa jamiyat a'zolarining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy resurslarga ega bo'lish darajasiga qarab iyerarxik tartibda joylashuvini anglatadi [3].

Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy inklyuziya darajasining ijtimoiy tabaqalanish dinamikasiga ta'sirini baholashning zamonaviy uslubiy yondashuvlarini tizimli tahlil qilish, ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida qo'llash imkoniyatlarini baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: moliyaviy inklyuziyani o'lchashning mavjud metodologiyalarini taqqoslash; ijtimoiy tabaqalanish ko'rsatkichlari bilan integratsiyalash usullarini aniqlash; empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tabaqalanishning nazariy asoslari klassik sotsiologiyada shakllangan bo'lib, Max Weber tomonidan ishlab chiqilgan uch o'lchovli stratifikatsiya modeli ushbu sohadagi fundamental konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Weber tabaqalanishni uchta mustaqil, ammo o'zaro bog'liq omil orqali tushuntirgan: sinf (iqtisodiy holat), maqom (ijtimoiy obro') va hokimiyat (siyosiy ta'sir) [4]. Ushbu yondashuv K. Marksning faqat iqtisodiy omillarga asoslangan bir o'lchovli modelidan farqli o'laroq, ijtimoiy tengsizlikning murakkab tabiatini yanada to'liq aks ettiradi [5].

Moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tengsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda Sarma (2008) tomonidan ishlab chiqilgan ko'p o'lchovli moliyaviy inklyuziya indeksi (IFI) muhim metodologik asos yaratdi [6]. Ushbu indeks UNDP ning Inson taraqqiyoti indeksini hisoblash metodologiyasiga asoslangan bo'lib, moliyaviy inklyuziyaning uchta asosiy o'lchovini: kirishimlilik (penetration), mavjudlik (availability) va foydalanish (usage) ni birlashtiradi. Sarma yondashuvining afzalligi shundaki, u 0 dan 1 gacha bo'lgan yagona raqamda mamlakatlararo taqqoslash imkonini beradi [7].

Cámara va Tuesta (2014) moliyaviy inklyuziya indeksini shakllantirish uchun ikki bosqichli asosiy komponentlar tahlili (PCA) metodini taklif qilishgan [8]. Ushbu parametrik yondashuv indikatorlarga og'irlik berish jarayonida subyektiv qarorlar

ta'sirini kamaytiradi va ma'lumotlar strukturasidan kelib chiqqan holda og'irliklarni endogen tarzda aniqlaydi. Keyinchalik Park va Mercado (2018) ushbu metodologiyani rivojlantirgan bo'lib, ular 116 ta rivojlanayotgan mamlakatni qamrab olgan panel ma'lumotlar tahlilini o'tkazishgan [9].

Daromad tengsizligini o'lchashda Gini koeffitsienti eng keng tarqalgan ko'rsatkich hisoblanadi. Italiyalik statistik Korrado Gini tomonidan 1912-yilda ishlab chiqilgan ushbu koeffitsient daromad taqsimlanishidagi notekislikni 0 (mutlaq tenglik) dan 1 (mutlaq tengsizlik) gacha bo'lgan shkala bo'yicha o'lchaydi [10]. Biroq, Gini koeffitsientining cheklanishi shundaki, u daromad taqsimlanishining uchlarida (eng boy va eng kambag'al guruhlar orasida) sodir bo'ladigan o'zgarishlarga nisbatan kam sezgir [11].

Omar va Inaba (2020) 116 ta rivojlanayotgan mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlarida moliyaviy inklyuziyaning kambag'allik va daromad tengsizligini kamaytirishda muhim rol o'ynashini isbotladilar [12]. Ularning natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki uning mevalari jamiyat a'zolari o'rtasida adolatli taqsimlanishiga ham yordam beradi. Honohan (2008) esa moliyaviy kirishimlilik va kambag'allik o'rtasida salbiy korrelyatsiya mavjudligini, ya'ni moliyaviy inklyuziya yuqori bo'lgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi past ekanligini aniqlagan [13].

Raqamli moliyaviy inklyuziya sohasidagi so'nggi tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq. Xalqaro valyuta fondi (2025) tomonidan chop etilgan ishchi qog'ozda Xitoyda raqamli moliyaviy inklyuziyaning daromad tengsizligiga ta'siri o'rganilgan [14]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli moliyaviy xizmatlar past daromadli uy xo'jaliklarining ish haqi daromadiga yuqori daromadli uy xo'jaliklariga nisbatan kuchliroq ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa ish haqi daromadidagi tengsizlikni qisqartirishga olib keladi.

METODOLOGIYA

Moliyaviy inklyuziya darajasining ijtimoiy tabaqalanish dinamikasiga ta'sirini baholashda qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlar uchta asosiy yo'nalishga bo'linadi: moliyaviy inklyuziyani o'lchash metodologiyasi, ijtimoiy tabaqalanish ko'rsatkichlarini aniqlash usullari va ularning o'zaro ta'sirini ekonometrik modellashirish.

Moliyaviy inklyuziyani o'lchash metodologiyasi

Moliyaviy inklyuziya indeksini shakllantirish uchun ikki asosiy metodologik yondashuv qo'llaniladi: masofa asosidagi yondashuv (distance-based approach) va asosiy komponentlar tahlili (Principal Component Analysis). Sarma (2008, 2012, 2015) tomonidan ishlab chiqilgan masofa asosidagi yondashuv quyidagi formulaga asoslanadi [6]:

$$IFI = 1 - \frac{\sqrt{(1 - d_1)^2 + (1 - d_2)^2 + \dots + (1 - d_n)^2}}{\sqrt{n}}$$

Bu yerda har bir d_i quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$d_i = \frac{A_i - m_i}{M_i - m_i}$$

- IFI — moliyaviy inklyuziya indeksi, 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymat oladi.
- i — indeks belgisi
- d_i — i - normallashtirilgan o'lchov indeksi
- A_i — i -o'lchov bo'yicha haqiqiy qiymat

- m_i, M_i — mos ravishda minimal va maksimal qiymatlar
- n — o'lchovlar soni (ya'ni indeksga kiradigan indikatorlar soni)

Ushbu indeks 0 dan 1 gacha qiymat qabul qiladi, bunda 0 to'liq moliyaviy istisno, 1 esa to'liq moliyaviy inklyuziyani bildiradi [15].

Asosiy komponentlar tahlili (PCA) metodida og'irliklar ma'lumotlar strukturasidan endogen tarzda aniqlanadi. Cámara va Tuesta (2014) tomonidan taklif qilingan ikki bosqichli PCA metodologiyasida birinchi bosqichda har bir o'lchov (kirishimlilik, foydalanish, to'siqlar) uchun sub-indekslar hisoblanadi, ikkinchi bosqichda esa ushbu sub-indekslar yagona kompozit indeksga birlashtiriladi [8]. PCA metodining afzalligi shundaki, u indikatorlarning o'zaro korrelyatsiyasini hisobga oladi va ortiqcha axborotning ta'sirini kamaytiradi.

Ijtimoiy tabaqalanish ko'rsatkichlari

Ijtimoiy tabaqalanishni o'lchashda asosiy ko'rsatkich sifatida Gini koeffitsienti qo'llaniladi. Ushbu koeffitsient Lorens egri chizig'i va mutlaq tenglik chizig'i orasidagi maydonni o'lchaydi [10]. Gini koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$G = 1 - \sum (X_i - X_{i-1})(Y_i + Y_{i-1})$$

Bu yerda:

• G — Gini koeffitsiyenti, daromadlar tengsizligini o'lchaydi (0: to'liq tenglik, 1: maksimal tengsizlik).

• X_i — aholining kumulyativ ulushi (foizda), i -nuqta uchun

• Y_i — daromadning kumulyativ ulushi (foizda), i -nuqta uchun

• $(X_i - X_{i-1})(Y_i + Y_{i-1})$ — Lorenz egri ostidagi pastki to'g'ri to'rtburchaklar maydonlari asosida hisoblanadi

Gini koeffitsientidan tashqari, Theil indeksi va kvintil nisbatlari (eng yuqori 10% daromadning eng past 10% daromadiga nisbati) ham ijtimoiy tabaqalanishni tahlil qilishda qo'llaniladi [16].

Ekonometrik modellash usullari

Moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishda panel ma'lumotlar regressiyasi keng qo'llaniladi. Tadqiqotlarda asosan ikki bosqichli umumlashtirilgan momentlar metodi (System GMM) ishlatiladi, chunki u endogenlik va ketma-ket korrelyatsiya muammolarini hal qilishga imkon beradi [17]. Model spetsifikatsiyasi quyidagicha:

$$Gini_{it} = \alpha + \beta_1 FII_{it} + \beta_2 X_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

• $Gini_{it}$ — i -mamlakatning t -yildagi Gini koeffitsienti, daromad tengsizligi ko'rsatkichi

• FII_{it} — moliyaviy inklyuziya indeksi

• X_{it} — nazorat o'zgaruvchilari vektori, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- YaIM o'sishi (GDP growth)
- Inflyatsiya darajasi
- Savdo ochiqligi (trade openness)
- Ta'lim ko'rsatkichlari

• μ_i — mamlakatga xos qat'iy samaralar (unobservable country-specific effects)

• ε_{it} — xatolik komponenti (error term)

Moliyaviy inklyuziya koeffitsientining (β_1) kutilgan ishorasi salbiy, ya'ni moliyaviy inklyuziyaning oshishi daromad tengsizligini kamaytirishga olib kelishi kutiladi [12].

Kvantil regressiya usuli moliyaviy inklyuziyaning turli daromad guruhlariga differentsial ta'sirini baholash imkonini beradi. Ushbu usul daromad taqsimlanishining turli nuqtalarida (25%, 50%, 75% kvantillarda) moliyaviy inklyuziya ta'sirini alohida baholaydi [14]. So'nggi tadqiqotlarda moderator o'zgaruvchilar (masalan, qarib kelayotgan aholi ulushi, raqamli infratuzilma rivojlanganligi) ta'siri ham hisobga olinmoqda [18].

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon banki Global Findex ma'lumotlar bazasi (2025) ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda kattalar aholisining moliyaviy hisobga egalik darajasi 2014-yildan 2024-yilgacha sezilarli o'sdi [1]. Past va o'rta daromadli mamlakatlarda hisobga egalik 55 foizdan 75 foizgacha oshgan bo'lib, bu o'n yil ichida 20 foizlik punktga o'sishni tashkil etadi. Biroq, mintaqalar kesimida sezilarli farqlar mavjud: Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 83 foiz, Janubiy Osiyoda 78 foiz, Sahroi Kabir Afrikasida 58 foiz, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada esa atigi 53 foiz.

1-jadval.

Mintaqalar bo'yicha moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari (2024)¹

Mintaqa	Hisobga egalik (foizda)	Raqamli to'lovlar (foizda)	Gender farqi (foizda)
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	83	80	2
Janubiy Osiyo	78	44	6
Lotin Amerikasi va Karib havzasi	70	58	4
Sahroi Kabir Afrikasi	58	52	8
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	53	44	14
Markaziy Osiyo (O'zbekiston)	60	48	7

O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari so'nggi yillarda sezilarli yaxshilangan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kattalar aholisining bank hisobvarag'iga egalik darajasi 2011-yildagi 23 foizdan 2021-yilda 44 foizga, 2024-yilda esa taxminan 60 foizga yetdi [19]. Muomalada bo'lgan debet kartalar soni 2017-yildagi 19 milliondan 2022-yilning iyul oyiga kelib 30 millionga ko'paydi. Masofaviy bank tizimi foydalanuvchilari soni olti barobar o'sib, taxminan 25 million kishiga yetdi [20].


Empirik tadqiqotlar moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish o'rtasidagi salbiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi. Omar va Inaba tomonidan 116 ta rivojlanayotgan mamlakatda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy inklyuziya indeksining 1 foizga oshishi Gini koeffitsientini 0.023 punktga kamaytiradi [12]. Garcia-Herrer va Turegano moliyaviy inklyuziyaning daromad tengsizligini kamaytirishdagi ta'siri fiskal siyosatning ta'siriga teng ekanligini aniqlashgan [21].

¹ Manba: World Bank Global Findex Database 2025 [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval.

Moliyaviy inklyuziya va daromad tengsizligi: empirik tadqiqotlar natijalari²

Tadqiqotchi(lar)	Yil	Namuna	Metod	Asosiy natija
Omar va Inaba	2020	116 mamlakat	System GMM	Salbiy bogʻliqlik ($\beta = -0.023$)
Garcia-Herrer va Turégano	2015	Cross-country	OLS, IV	FI fiskal siyosatga teng taʼsir
Osakwe a Solleder	2023	Panel data	GMM	FI boylik tengsizligini kamaytiradi
IMF (Xitoy)	2025	Viloyatlar	Quantile regression	Past daromatlilarga kuchliroq taʼsir

**1-rasm. Moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish: kontseptual model³****2-rasm. Mintaqalar bo'yicha moliyaviy inklyuziya kursorliklarining qiyosiy tahlili (2014-2024)⁴**² Manba: [12], [14], [21], [22] asosida muallif tomonidan tuzilgan.³ Manba: World Bank Global Findex Database 2025 asosida muallif tomonidan tuzilgan

Metodologik yondashuvlarni taqqoslaganda, har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va cheklanishlari mavjud. Sarma metodologiyasi soddaligi va mamlakatlararo taqqoslash qulayligi bilan ajralib turadi, biroq indikatorlarga teng og'irlik berish sub'ektiv qaror hisoblanadi. PCA asosidagi yondashuvlar ma'lumotlarga asoslangan og'irliklarni taqdim etadi, ammo interpretatsiya murakkabligi va ma'lumotlar sifatiga bog'liqligi kabi kamchiliklarga ega. Kombinatsiyalangan yondashuvlar esa ikki metodning afzalliklarini birlashtirish imkonini beradi [23].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy inklyuziya darajasining ijtimoiy tabaqalanish dinamikasiga ta'sirini baholash bo'yicha o'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, moliyaviy inklyuziyani o'lchashning zamonaviy metodologiyalari ko'p o'lchovli yondashuvga asoslanadi va uchta asosiy o'lchovni (kirishimlilik, mavjudlik, foydalanish) qamrab oladi. Ushbu yondashuvlar orasida Sarma metodologiyasi soddaligi, PCA asosidagi metodlar esa ob'ektivligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchidan, empirik tadqiqotlar moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish (daromad tengsizligi) o'rtasida statistik jihatdan muhim salbiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Bu shuni anglatadiki, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi daromad taqsimlanishidagi notekislikni kamaytirishga yordam beradi. Muhimi, bu ta'sir fiskal siyosatning tenglikka ta'siriga tenglashadi.

Uchinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi inklyuziyani oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, mobil to'lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari an'anaviy infratuzilma cheklovlarini bartaraf etish va qishloq joylardagi aholini qamrab olish imkonini beradi.

O'zbekiston kontekstida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasini (2021-2023) yangi davr uchun yangilash va kengaytirish, bunda ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirish maqsadlarini aniq belgilash.
2. Moliyaviy inklyuziya darajasini muntazam monitoring qilish uchun ko'p o'lchovli indeks tizimini joriy etish va uni ijtimoiy tengsizlik ko'rsatkichlari bilan bog'lash.
3. Raqamli moliyaviy xizmatlarni, ayniqsa qishloq joylarda kengaytirish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish.
4. Ayollar va kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini oshirish bo'yicha maxsus choralar ko'rish.
5. Moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish va aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

Kelgusi tadqiqotlar uchun O'zbekiston viloyatlari kesimida moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish, panel ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ekonometrik modellash usullarini qo'llash tavsiya etiladi. Bunday tadqiqotlar mintaqaviy siyosatni maqsadli va samarali shakllantirish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

⁴ Manba: World Bank. (2025). The Global Findex Database 2025. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex> ; O'zbekiston uchun: CBU Financial Stability Report 2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. (2025). The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. Washington, DC: World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>
2. Demirguc-Kunt, A., Klapper, L., & Singer, D. (2017). Financial Inclusion and Inclusive Growth: A Review of Recent Empirical Evidence. Policy Research Working Paper No. 8040. Washington, DC: World Bank. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/403611493134249446>
3. Grusky, D. B., & Szelényi, S. (Eds.). (2018). The Inequality Reader: Contemporary and Foundational Readings in Race, Class, and Gender (2nd ed.). New York: Routledge.
4. Weber, M. (1946). Class, Status, Party. In H. H. Gerth & C. W. Mills (Eds. & Trans.), From Max Weber: Essays in Sociology (pp. 180-195). New York: Oxford University Press. <https://archive.org/details/frommaxweberessa0000webe>
5. Bogenhold, D., & Permana, Y. M. (2021). Inequality Processes and Vertical Social Stratification: The Issue of the Middle Classes. In Neglected Links in Economics and Society. Cham: Palgrave Macmillan. https://doi.org/10.1007/978-3-030-79193-3_3
6. Sarma, M. (2008). Index of Financial Inclusion. ICRIER Working Paper No. 215. New Delhi: Indian Council for Research on International Economic Relations. https://www.icrier.org/pdf/Working_Paper_215.pdf
7. Sarma, M. (2015). Measuring Financial Inclusion. Economics Bulletin, 35(1), 604-611. <https://ideas.repec.org/a/eb/ecbull/eb-14-00854.html>
8. Camara, N., & Tuesta, D. (2014). Measuring Financial Inclusion: A Multidimensional Index. BBVA Research Working Paper No. 14/26. https://www.bbvaresearch.com/wp-content/uploads/2014/09/WP14-26_Financial-Inclusion.pdf
9. Park, C.-Y., & Mercado, R. V. (2018). Financial Inclusion, Poverty, and Income Inequality. The Singapore Economic Review, 63(1), 185-206. <https://doi.org/10.1142/S0217590818410059>
10. Gini, C. (1912). Variabilità e mutabilità: contributo allo studio delle distribuzioni e delle relazioni statistiche. Bologna: Tipografia di Paolo Cuppini.
11. Sitthiyot, T., & Budsaratagoon, P. (2020). A simple method for measuring inequality. Humanities and Social Sciences Communications, 7(23). <https://doi.org/10.1057/s41599-020-0484-6>
12. Omar, M. A., & Inaba, K. (2020). Does financial inclusion reduce poverty and income inequality in developing countries? A panel data analysis. Journal of Economic Structures, 9(37). <https://doi.org/10.1186/s40008-020-00214-4>
13. Honohan, P. (2008). Cross-country variation in household access to financial services. Journal of Banking & Finance, 32(11), 2493-2500. <https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2008.05.004>
14. IMF. (2025). Digital Financial Inclusion and Income Inequality in China. IMF Working Paper No. 2025/071. Washington, DC: International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2025/04/04/Digital-Financial-Inclusion-and-Income-Inequality-in-China-565543>

15. Nguyen, T. T. H. (2021). Measuring financial inclusion: a composite FI index for the developing countries. *Journal of Economics and Development*, 23(1), 77-99. <https://doi.org/10.1108/JED-03-2020-0027>
16. Theil, H. (1967). *Economics and Information Theory*. Amsterdam: North-Holland Publishing Company.
17. Roodman, D. (2009). How to do xtabond2: An introduction to difference and system GMM in Stata. *The Stata Journal*, 9(1), 86-136. <https://doi.org/10.1177/1536867X0900900106>
18. Thi Bui, V. H., & Oanh Luong, T. T. (2023). Financial inclusion and income inequality in developing countries: The role of aging populations. *Research in International Business and Finance*, 66, 102062. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2023.102062>
19. World Bank. (2024). From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan. *World Bank Blogs*. <https://blogs.worldbank.org/en/psd/livestock-lifelong-savings-improving-financial-inclusion-uzbekistan>
20. Central Bank of Uzbekistan. (2025). The Financial Stability Report for 2024. Tashkent: CBU. https://cbu.uz/en/press_center/releases/2489245/
21. García-Herrer, A., & Turégano, D. M. (2015). Financial Inclusion, Rather than Size, is the Key to Tackling Income Inequality. *BBVA Research Working Paper No. 15/05*. https://www.bbvaresearch.com/wp-content/uploads/2015/02/WP_Financial-Inclusion-Income-Inequality4.pdf
22. Osakwe, P. N., & Solleder, O. (2023). Wealth Distribution, Income Inequality and Financial Inclusion: A Panel Data Analysis. *UNCTAD Working Papers No. 4*. Geneva: UNCTAD. <https://unctad.org/publication/wealth-distribution-income-inequality-and-financial-inclusion-panel-data-analysis>
23. Mishra, D., Kandpal, V., Agarwal, N., & Srivastava, B. (2024). Financial Inclusion and Its Ripple Effects on Socio-Economic Development: A Comprehensive Review. *Journal of Risk and Financial Management*, 17(3), 105. <https://doi.org/10.3390/jrfm17030105>
24. ADB. (2024). Uzbekistan: Inclusive Finance Sector Development Program. Asian Development Bank. <https://www.adb.org/projects/57245-001/main>
25. IMF. (2024). Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation. *IMF Staff Country Reports* No. 2024/210. <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-2024-Article-IV-Consultation-Press-Release-and-Staff-Report-551703b>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

